

Ilk yoshdagi bolalarni tarbiyalashda ota-onalarning pedagogik-psixologik kompetentligini oshirish texnologiyasini takomillashtirish

Dilnoza Nazarova Eraliyevna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti

Tarix kafedrası dotsenti, tarix fanlari falsafa doktori (PhD)

Ne'matjonova Gulzira Ne'matjon qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika

universiteti Magistratura bo'limi Ta'lim-tarbiya

nazariyasi va metodikasi(maktabgacha ta'lim)

yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ilk yoshdagi bolalarni tarbiyalash jarayonida ota-onalarning pedagogik va psixologik kompetentligini oshirish texnologiyalarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Maqolada ota-onalarning farzand tarbiyasidagi o'rni, ularning tarbiyaviy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishning zamonaviy usullari tahlil qilingan. Shuningdek, pedagogik-psixologik kompetentlikni oshirishda interaktiv metodlar, trening mashg'ulotlari, konsultativ suhbatlar va raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish samaradorligi asoslab berilgan. Maqolada ota-onalar bilan ishlashning tizimli yondashuvi, oilaviy tarbiya madaniyatini yuksaltirish hamda bolalarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'sirchan pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ilk yoshdagi bola, ota-ona, pedagogik kompetentlik, psixologik kompetentlik, tarbiya texnologiyasi, oilaviy tarbiya, interaktiv metodlar.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" Taraqqiyot strategiyasida ta'lim tizimini, xususan, maktabgacha ta'limni tubdan isloh qilish, bolalarni ilk yoshdan boshlab har tomonlama rivojlantirish, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Strategiyaning 58-bandida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, jismoniy va ma'naviy rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish, ota-onalarni pedagogik bilimlar bilan qurollantirish" vazifasi ko'rsatib o'tilgan. Shu nuqtai nazardan, ota-onalarning pedagogik va psixologik kompetentligini oshirish texnologiyalarini takomillashtirish — bolalar tarbiyasining poydevorini mustahkamlovchi eng muhim omildir. Chunki bola shaxsining dastlabki shakllanishi aynan oilada kechadi va bu jarayonda ota-onaning bilim darajasi, ruhiy tayyorgarligi hamda tarbiyaviy yondashuvi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

Pedagogik kompetentlik — bu ota-onaning bola tarbiyasida ilmiy asoslangan yondashuv, shaxsiy namunaviy xulq va tarbiyaviy strategiyalarni ongli qo'llay olish qobiliyatidir. Psixologik kompetentlik esa bolaning individual psixik xususiyatlarini tushunish, hissiy ehtiyojlarini inobatga olish va sog'lom muloqot muhitini yaratish bilan bog'liq. Ota-onalar bu ikki yo'nalishdagi bilimlarni yetarli darajada egallamagan taqdirda, bola rivojida hissiy beqarorlik, o'ziga ishonchsizlik va ijtimoiy moslashuvdagi muammolar yuzaga keladi. Shu bois pedagogik-psixologik kompetentlikni oshirish jamiyat miqyosida ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Yosh va bo'lajak ota-onalarni qanday pedagogik

bilimlar bilan qurollantirish haqida to'xtalib o'tamiz. Yosh ota-onalarning pedagogik bilimlarini oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- sharq mutaffakirlarining yosh avlod tarbiyasi haqidagi fikrlari bilan tanishtirish;
- tarbiya metodlari haqida tushuncha berish. Ya'ni ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar,

odatlantirish va mashq, rag'batlantirish va jazolash metodlaridan o'z o'rnida, to'g'ri foydalanish haqida ma'lumot berish;

- tarbiya vositalari haqida ma'lumotlar berish, ya'ni yosh ota-ona tarbiya vositasi sifatida ertaklar, nasihatlar, hikoyalar, suhbatlardan foydalanishning ijobiy tomonlari, yoki har xil qo'l telefonlari, kompyuterlar, seriallardan foydalanishning salbiy tomonlari haqida ma'lumotlar berish;

- yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs etib tarbiyalash vazifasi turgan yosh ota-onalarga oilada farzand tarbiyalashda barcha tarbiya turlaridan unumli foydalanish haqida bilim berish, yani axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, aqliy tarbiya, mehnat tarbiyasi, ekologik tarbiya, iqtisodiy tarbiya berish yo'llari haqida ma'lumot berish.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida maktabgacha ta’lim sohasiga oid ustuvor yo‘nalishlar

Strategiyada quyidagi maqsadlar belgilangan:

-2030-yilga borib maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasini 100 foizga yetkazish;

-Maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyachilar va ota-onalar uchun metodik hamkorlik tizimini yo‘lga qo‘yish;

Ilk yoshdagi bolalar rivojini monitoring qilishning zamonaviy psixologik-pedagogik mexanizmlarini joriy etish;

Ota-onalarning psixologik bilimdonligini oshirishda quyidagi masalalarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'lar edi:

- psixologik jarayonlar, holatlar va individual psixologik xususiyatlar haqida qisqacha ma'lumot berish;

- rivojlanish psixologiyasi haqida ma'lumot berish orqali o'z farzandlarining psixologik tomondan rivojlanish darajalarini o'rganib borishadi;

- har bir yosh davri haqida ma'lumotga ega bo'lish orqali bolaning rivojlanishi uchun sezitiv bo'lgan davrlarni befarqlik bilan o'tkazib yubormaslikka erishiladi.

Masalan, bola rivojlanishining eng sezitiv davri bo'lgan ilk bolalik davrini (1-3 yosh) ko'pgina psixologik bilimlardan xabari yo'q ota-onalar, faqatgina farzandini qornini to'ydirib, kiyintirsam bo'ldi qabilida ish tutib bemaqsad o'tkazib yuborishlari mumkin. Shuningdek, bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lgan o'smirlik davrida ham ba'zi ota-onalar farzandlarini to'g'ri tushunmasdan, ularga yomon munosabatda bo'lishi natijasida “inqiroz davri”ni o'smirlar qiyinchiliklar bilan o'tkazishi mumkin.

Ota-onalar bilan ishlashda quyidagi texnologik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

-Interaktiv treninglar – ota-onalarning bolalar bilan muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar;

-Masofaviy o'quv platformalari – pedagog va psixologlarning video darslari, vebinarlar va onlayn konsultatsiyalar orqali ota-onalarni o'qitish;

-Kouching va mentorlik tizimi – tajribali tarbiyachilar tomonidan ota-onalarga individual maslahatlar berish;

-Oilaviy seminarlar – ota-onalar, tarbiyachilar va psixologlar ishtirokidagi amaliy uchrashuvlar.

Xulosa

O‘zbekiston 2030-yilgacha bo‘lgan Taraqqiyot strategiyasida maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish, ota-onalar va pedagoglar hamkorligini mustahkamlash orqali bola tarbiyasining sifatini oshirish asosiy vazifalardan biridir. Ilk yoshdagi bolalarni tarbiyalashda ota-onalarning pedagogik va psixologik kompetentligini oshirish texnologiyalarini takomillashtirish — bu strategik maqsadlarni amalda ro‘yobga chiqarishning muhim kafolatidir. Shu bois ota-onalarni muntazam o‘qitish, ular uchun raqamli ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish, psixologik-pedagogik markazlar faoliyatini kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Natijada, ota-onalarning kompetentligi yuksaladi, bola shaxsining har tomonlama sog‘lom rivojlanishi uchun qulay oilaviy va ijtimoiy muhit yaratiladi.

Bir so‘z bilan aytganda yosh ota-onalarning pedagogik-psixologik bilimlar bilan qurollantirish bugungi kunning davlat ahamiyatidagi masalalaridan biridir. Farzand ko‘z ochib onasini ko‘rar ekan, rivojlanishining ilk yillarini oila davrasida o‘tkazar ekan, demak ota-onalar va oila a‘zolarining bu farzand tarbiyasi uchun ma’suliyati ulkandir. Go‘yo Javhariy bobomiz aytganidek, farzand tug‘ilganida oq qog‘ozdir, unga ota-onalari va ustozlari nimani yozishni bilishlari zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 2023-yil 11-sentabr.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi vazirligi ma’lumotlari, 2024-yil.
- 3.To‘raeva N., Qodirova M. Maktabgacha ta’lim psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2021.
- 4.G‘aniyeva D. Oilaviy tarbiya va psixologik kompetentlik. – Toshkent: Innovatsiya, 2022.
5. UNESCO. Parenting Education and Early Childhood Development. – Paris, 2020.
6. I.Karimov “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”. Toshkent-2008 yil.
7. P.Ivanov, M.Zufarova “Umumiy psixologiya” Toshkent-2016 yil.
8. Z.Nishonova “Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya” Toshkent-2017 yil
9. J.Hasanboyev va boshqalar “Pedagogika” darslik. Fan- 2016